



“QADIMGI DEHQONCHILIK TURLARI VA ULARNING TABIIY- GEOGRAFIK SHAROITLAR BILAN BOG‘LIQLIGI”

Babayazov Umidbek Pulatovich

Urganch davlat universiteti,

Tarix kafedrası, o‘qituvchisi

E-mail: u.babayazov@gmail.com

Tel: 998334219191

Annotatsiya. *Mazkur maqolada qadimgi dehqonchilik turlari va ularning tabiiy-geografik sharoitlar bilan bog‘liqligi ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Neolit davrida dehqonchilikning o‘zlashtiruvchi xo‘jalikdan ishlab chiqaruvchi xo‘jalikka o‘tishi jarayonlari yoritilgan. Qo‘ltiq dehqonchiligi, lalmikor dehqonchilik, sug‘orma dehqonchilik kabi shakllarning shakllanishi va rivojlanishida tog‘ daryolari, buloqlar hamda yirik daryolarning o‘rni ko‘rsatib berilgan.*

Kalit so‘zlar. *Dehqonchilik, qo‘ltiq dehqonchiligi, lalmikor dehqonchilik, sug‘orma dehqonchilik, irrigatsiya tizimi, Sug‘d, Baqtriya.*

«ДРЕВНИЕ ФОРМЫ ЗЕМЛЕДЕЛИЯ И ИХ СВЯЗЬ С ПРИРОДНО- ГЕОГРАФИЧЕСКИМИ УСЛОВИЯМИ»

Бабаязов Умидбек Пулатович

Ургенчский государственный университет,

преподаватель кафедры истории,

E-mail: u.babayazov@gmail.com

Тел: 998334219191

Аннотация. *В данной статье рассматриваются древние формы земледелия и их взаимосвязь с природно-географическими условиями. Проанализирован переход от присваивающего хозяйства к производящему в эпоху неолита. Освещены особенности формирования пойменного, богарного и оросительного земледелия, а также роль горных рек, источников и крупных рек в развитии сельского хозяйства.*

Ключевые слова. *Земледелие, пойменное земледелие, богарное земледелие, оросительное земледелие, ирригационная система, Согд, Бактрия.*



“ANCIENT FORMS OF AGRICULTURE AND THEIR CONNECTION WITH NATURAL-GEOGRAPHICAL CONDITIONS”

Babayazov Umidbek Pulatovich

Urganch State University

Teacher at the Department of History

E-mail: u.babayazov@gmail.com

Phone: 998334219191

Abstract. *This article examines the ancient forms of agriculture and their close relationship with natural and geographical conditions. It analyzes the transition from foraging to productive farming during the Neolithic period. The study highlights the development of floodplain, dry-farming, and irrigated agriculture, as well as the role of mountain rivers, springs, and large river systems in sustaining agricultural practices.*

Keywords. *Agriculture, floodplain farming, dry-farming, irrigated agriculture, irrigation system, Sogdiana, Bactria.*

Kirish. Dehqonchilik insoniyat taraqqiyotining eng muhim bosqichlaridan biri bo‘lib, uning shakllanishi va rivojlanishi jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy hayotida tub burilish yasagan. Dastlabki davrlarda insonlar tabiat bergan mahsulotlardan foydalanib, o‘zlashtiruvchi xo‘jalik bilan shug‘ullangan bo‘lsalar, neolit davridan boshlab ishlab chiqaruvchi xo‘jalikka o‘tish jarayoni boshlandi. Bu davrda ekin ekish usullari tabiiy sharoitga mos ravishda shakllangan, daryolar va soylar bo‘ylarida, namligi yuqori hududlarda yovvoyi don ekinlari ekilib, hosil yig‘ib olingan. Ilk dehqonchilikda hayvon kuchi hali qo‘llanmagan, oddiy ketmon va motigadan foydalanilgan.

Adabiyotlar tahlili. Mazkur mavzuda qator olimlarning ilmiy tadqiqotlari alohida o‘rin tutadi. Jumladan, S.P. Tolstov qadimgi Xorazmning arxeologik yodgorliklarini o‘rgangan bo‘lib, irrigatsiya tizimlari va sug‘orma dehqonchilikning shakllanish jarayonlarini ilmiy asosda yoritib bergan. Ya.G‘. G‘ulomov O‘zbekiston hududidagi qadimiy dehqonchilik shakllarini arxeologik topilmalar asosida tahlil qilgan. M.A. Itina va B.V. Andrianov esa Xorazm vohasi sug‘orish tizimlarining morfologiyasi, kanallar tarmoqlarining shakllanishi va tarixiy ahamiyatini chuqur tadqiq qilganlar.

Metodologik asoslar. Mazkur tadqiqot tarixiy-geografik va arxeologik-tahliliy yondashuvlarga asoslanadi. Birinchidan, dehqonchilik shakllarini o‘rganishda hududlarning tabiiy sharoitlari, daryolar tarmoqlari va sug‘orish imkoniyatlari hisobga olingan. Ikkinchidan, arxeologik yodgorliklardan topilgan dalillar (kanallar izlari, soqa qoldiqlari, sopol buyumlar, yerto‘la turar-joylar) orqali dehqonchilikning shakllanishi va rivojlanishi aniqlangan.



Tahlil. Dehqonchilik xo‘jaligining shakllanishi bevosita tabiiy-geografik sharoit bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan. Insonlar mavjud tabiiy muhitga moslashgan holda ekin ekishning dastlabki usullarini o‘zlashtirganlar. Ilk dehqonchilik o‘zlashtiruvchi xo‘jalik turidan ishlab chiqaruvchi xo‘jalikka o‘tish jarayonida vujudga kelgan bo‘lib, mazkur davr insoniyat tarixida neolit bosqichi sifatida tavsiflanadi. Biroq ushbu jarayon dunyoning barcha hududlarida bir vaqtning o‘zida yuz bermagan, balki har bir mintaqaning tabiiy-geografik joylashuvi va ekologik sharoitidan kelib chiqib turli davrlarda shakllangan hamda o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lgan.

Dastlabki bosqichlarda dehqonlar namligi yuqori bo‘lgan yerlarda yovvoyi boshoqli donlarni ekib, ularni deyarli hech qanday ishlovsiz yig‘ib olganlar. Dalalarni ekishga tayyorlash jarayonida hayvon kuchidan foydalanilmagan, yer faqatgina yengil ishlov talab qilgan bo‘lib, bunda asosan motiga va oddiy ketmon kabi dastlabki mehnat qurollari qo‘llanilgan.

Yerlarning suv bilan ta‘minlanishi va ekin ekish usullarining o‘ziga xos xususiyatlariga ko‘ra dehqonchilik ikki asosiy turga ajraladi: sun‘iy sug‘orishga asoslanmagan dehqonchilik hamda sug‘orma dehqonchilik. Sun‘iy sug‘orishga tayanmagan dehqonchilik turlari sifatida liman, qayr, qo‘ltiq va lalmikor dehqonchilik qayd etiladi.

Insoniyat tomonidan shakllantirilgan eng qadimgi dehqonchilik shakli qo‘ltiq dehqonchiligi bo‘lib, u motiga dehqonchiligi deb ham nomlanadi. Ushbu dehqonchilik asosan qurib borayotgan o‘zanlar, ko‘l havzalari va namligi yetarli bo‘lgan yumshoq yerlarda rivojlangan. Yumshoq yerlar oddiy ketmon yoki motiga yordamida yengil ishlov berish imkonini yaratgan. Shu bois Yevropa adabiyotlarida bu tur “motiga dehqonchiligi” sifatida tilga olinadi. Ushbu usul ko‘p kuch talab qilmagan: yerga ishlov berilgach, don urug‘i sepilib, hosil pishgach yig‘ib olingan [3].

Qo‘ltiq dehqonchiligi asosan tekislik hududlarida keng tarqalgan bo‘lsa, tog‘ etaklari va adirliklarda lalmikor dehqonchilik rivoj topgan. Lalmikor dehqonchilikda bahorgi yomg‘ir suvlaridan foydalanilgan, shuningdek, tog‘ soylaridan oqadigan suvlar va buloq suvlaridan ham ekinlarni sug‘orishda foydalanilgan. Bunday hollarda lalmikor dehqonchilik sug‘orma dehqonchilik bilan qo‘shib olib borilgan.

Biroq tog‘ suvlari va buloq suvlaridan foydalanish ko‘pincha murakkab jarayon bo‘lib, yuqori darajadagi mehnat va tajriba talab qilgan. Xususan, Amudaryoning yuqori oqimidagi qadimgi Baqtriya davlatida tog‘ oldi hududlarida yashovchi aholining lalmikor dehqonchiligi buning yaqqol namunasi sanaladi. Ba’zi hollarda ekin maydonlari suv oqimidan yuqorida joylashgani sababli dehqonlar suvni balandroqqa chiqarishga majbur bo‘lgan. Suvni yuqoriga ko‘tarish jarayoni yuqori darajadagi texnik bilim va mehnatni talab qilgan bo‘lib, bunday amaliyot iqtisodiy jihatdan rivojlangan davlatlarga amalga oshira olgan.

Natijalar. Sharqiy Baqtriyada sun‘iy sug‘orish tizimlarini bunyod etish jarayoni katta kuch va mablag‘ni talab qilgan. Shu sababdan irrigatsiya tizimlari asosan yirik

davlatlarning siyosiy hokimiyati davrida — Salavkiylar, Yunon-Baqtriya va Kushonlar imperiyasi hukmronligi davrida keng rivojlanganligi aniqlangan [1, B.88]. Arxeologik tadqiqotlar bu jihatni tasdiqlab bermoqda. Xususan, Oyxonum vohasidagi irrigatsiya tizimlari 1974–1979 yillarda fransuz arxeologi J.K. Garden tomonidan keng ko‘lamda o‘rganilgan [2]. Ma‘lumotlarga ko‘ra, Oyxonum vohasi asosan Ko‘kcha daryosining suvlari hisobiga sug‘orilgan bo‘lib, mil. avv. I ming yilliklarga oid davrda sug‘oriladigan yerlar 7 500 gektarni tashkil etgan [7]. Bundan tashqari, hududda qo‘shimcha kanallar qazilib, qariyb 100 ta qishloq mavjud bo‘lganligi aniqlangan [5, C.65]. Shu bilan birga, tog‘ oldi etaklari va tog‘ soylari bo‘ylarida lalmikor dehqonchilik ham amalga oshirilgan.

Qadimgi Sug‘d davlatining asosiy suv manbalari Qashqadaryo va Zarafshon daryolari hisoblangan. Bu daryolar janubiy, markaziy va g‘arbiy Sug‘d hududlarini turlicha darajada suv bilan ta‘minlab turgan. Dastlab, janubiy va markaziy Sug‘dda dehqonchilik daryo vohalari hamda tog‘ oldi hududlarida tog‘ daryolari va buloq suvlari asosida shakllangan [8, C.118]. Janubiy Sug‘d tog‘ oldi zonalarida lalmikor bog‘dorchilik va uzumchilik keng rivoj topgan [6]. Markaziy Sug‘dda esa ilk dehqonchilik Zarafshon tizmasidan oqib tushuvchi tog‘ daryolari, soylar hamda buloqlardan foydalanilgan holda amalga oshirilgan. Shu jarayonda Qo‘ytepa, Nomsiztepa, Qumtepa, Yorqo‘tontepa, Balandtepa va Galatepa kabi yodgorliklarda istiqomat qilgan aholi faol dehqonchilik bilan shug‘ullangan. Biroq hozirda mazkur hududlarda tog‘ suvlari kamayib ketganligi sababli, bu jarayon davom etmayapti. Ilk temir davri, arxaik va antik davrlarda esa tog‘ soylari va daryolarida suv miqdori ancha yuqori bo‘lgan.

Tog‘ daryolaridagi suvning kamayishi natijasida mahalliy aholi suv yig‘uvchi inshootlardan keng foydalangan. Xususan, Qo‘ytepa va Eski Angor qal‘alari oralig‘ida yomg‘ir suvlarini to‘plashga mo‘ljallangan uzun dambalar qurilgan. Bu dambalar orqali suv to‘planib, keyinchalik dehqonchilik ehtiyojlari uchun ishlatilgan.

Xulosa. Janubiy va Markaziy Sug‘dda aholi sonining ortishi va ijtimoiy boshqaruv tizimining takomillashuvi sun‘iy sug‘orish tizimlarini barpo etish va rivojlantirishga turtki bo‘lgan. Qarshi vohasi hududining tekislikda joylashgani sababli, bu yerda daryolardan ariqlar chiqarish va ulami uzoq masofalarga ham yetkazib borish imkoniyati mavjud edi. Shu bois qadimiy davrlardanoq Qarshi vohasida murakkab irrigatsiya tizimlari vujudga kelgan.

Markaziy Sug‘d hududida, ya‘ni Samarqand vohasida mil. avv. VI asrdayoq yirik sug‘orish inshooti — Darg‘om kanali barpo etilgan. Bu haqda keyingi davr arxeologik tadqiqotlari dalillar bilan tasdiqlaydi. Darg‘om kanali to‘g‘risida yozma manbalar ham saqlanib qolgan. Jumladan, milodiy II asrda yashagan yunon olimi Klavdiy Ptolomey o‘z asarida bu kanalni “Darja” nomi bilan tilga oladi.

Aholining suv ta‘minotini yaxshilash va dehqonchilikni rivojlantirish maqsadida Zarafshonning chap qirg‘og‘ida Varaxsar to‘g‘oni qurilib, undan yirik Darg‘om kanali



chiqarilgan. Shu bilan birga, daryoning o'ng qirg'og'idan Bulung'ur kanali qazilgan. Eng qadimgi sug'orish tarmoqlarining izlari Lolazor qishlog'i atroflarida aniqlangan [4, C.6].

Dastlabki davrlarda Zarafshonning o'zidan sug'orish kanallari chiqarilmagan, chunki daryoning oqim yo'li dalalarga nisbatan pastda joylashgan edi. Shu sababdan ilk sug'orish tarmoqlari Novadon bulog'idan chiqarilgan.

Foydalanilgan Adabiyotlar

1. Egamberdiyeva N.A. Amudaryo havzasi hududlarining qadimgi madaniyati – B. 88.
2. Gardin J.-C., Lyonnet B. La prospection archeologique de la Bactriane orientale (1974-1978): premiers resultants. // Mesopotamia. XIII-XIV. 1978-1979. -P. 99-154.
3. Гуломов Я.Ф. Хоразмнинг суғорилиш тарихи. – Б. 67; Андрианов Б.В. Земледелие наших предков. – Москва: Наука, 1978.
4. К исторической топографии древнего и средневекового Самарканда. – Ташкент: Фан, 1981. – С. 6.
5. Кошеленко Г.А., Мунчаев Р.М., Гаипов В.А. Археология Афганистана в дни мира и дни войн. – С. 65.
6. Омельченко А.В. Влияние природных и антропогенных факторов на систему расселения в предгорных районах Средней Азии в античное время (на примере восточной Кашкадарьи). // Центральная Азия от Ахеменидов до Темуридов: археология, история, этнология, культура. Материалы международной научной конференции, посвященной 100 - летию со дня рождения Александра Марковича Беленицкого (Санкт – Петербург, 2-5 ноября 2004 года). – СПб. 2005. – С. 181.
7. Сердитых З.В., Валиев А. Ирригация и население Восточной Бактрии. – С. 286; Кошеленко Г.А., Мунчаев Р.М., Гаипов В.А. Археология Афганистана в дни мира и дни войн. – Москва: Институт археологии РАН, 2014. – С. 64.
8. Сулейманов Р.Х. Древний Нахшаб. Проблемы цивилизации Узбекистана VII в. до н.э. – VIII в. н.э. – Ташкент: Фан, 2000. – С. 118.